

VODIY XUDUDLARIDA BAXSHICHILIK SAN'ATINI
RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Suvonova Ozoda Shuhrat qizi

Annotatsiya

Mazkur maqola Respublikamiz vodiylarida baxshichilik san'atini targ'ib qilish va rivojlantirish bosqichlari va xalq og'zaki ijodining qadimiy an'alarini tiklash va milliy qadriyatlarimizni izchil rivojlantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: baxshi, doston, baxshichilik maktablari, qadriyat, ustoz-shogird an'anasi

Abstract

This article is about the stages of promotion and development of the art of baksheek in the valleys of our Republic, restoration of the ancient traditions of folklore and consistent development of our national values.

Keywords: bakshi, epic, schools of bakshi, value, master-disciple tradition.

Абстрактный

В данной статье рассказывается об этапах пропаганды и развития искусства бакшики в долинах нашей Республики, восстановлении древних традиций народного творчества и последовательном развитии наших национальных ценностей.

Ключевые слова: бакши, эпос, школы бакши, ценности, традиция мастер-ученик.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy-madaniy meros durdonalarini asrab-avaylash, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'alarini tiklash va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish, ijodiy uyushmalar hamkorligida baxshi va dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini to'plash, nashr etish yuzasidan yana ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda. Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoirilar ijodining o'zbek madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, baxshichilik va dostonchilik san'atini ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ'ib etish, ustoz baxshilar va dostonchilar, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli yosh baxshilar hamda doston ijrochilari faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy

va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori barcha ijodkorlarni quvontirdi deb barilla ayta olamiz. Har bir kishi farzandim mard, halol, o'qimishli, el koriga yaraydigan komil inson bo'lsin, deb niyat qiladi. Komillikka yetish uchun, avvalo, odamning ruhiyati tetik, ongi va tafakkuri sog'lom, qalbi esa shijoatga limmolim bo'lmog'i darkor. Tetik ruhiyat va shijoatkor qalb sohibining shakllanishida ta'lim tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat bilan birgalikda san'atning ham o'rni beqiyos. Qadimiy san'at turlaridan bo'lmish baxshichilik uzoq o'tmishda ham qadr topgan. "Baxshi" so'zining ma'nosi mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha ustod, ma'rifatchi, sanskritcha bikshu qalandar, darvesh degan ma'noni beradi deb izohlanadi. O'zbekistonda qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan avlodga yetkazuvchi san'atkor. Baxshi so'zi ba'zan shaman ma'nosida ham qo'llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar. Baxshilar, asosan, ikki toifaga; ijrochi va ijodkor baxshilarga bo'linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o'rgangan dostonlarni juz'iy o'zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og'zaki epik an'ana asosida yangi dostonlar xam yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb xam yuritiladi. Jumladan, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoirlar misol tariqasida e'tirof etish mumkin. Baxshilar doston va qo'shiqlarni qo'biz, do'mbira, dutor kabi sozlar jo'rligida kuylaydi. Chunki, baxshichilik so'zi va ohang uyg'unligida yoshlarning mard, jasur va vatanparvar inson bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutgan. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, sarkardalar urush safarlarida askarlarning shijoati va jasoratini, Vatanga sadoqatini yuqori darajadaga ko'tarish maqsadida o'zlari bilan baxshilarni olib yurgan. O'zbekistonda baxshichilik maktablari xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta bo'lib, asrlar davomida boy ma'naviy e'tiqodga ega meros to'planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodining muhim yo'nalishi bo'lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylangan. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo'lgan, ularda afsonaviy qaxramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning "Iliada", "Odisseya", Abulqosim Firdavsiyning "Shoxnoma" Aligeri Dantening "Ilohiy komediya" asarlari doston janrining qadimgi namunalaridir. Dostonlar, o'z mohiyatiga ko'ra, qaxramonlik masalan, "Alpomish", "Farhod va Shirin", sarguzasht detektiv "Sabb'ai sayyor», ishqiy romantik "Toxir va Zuxra", "Layli va Majnun", jangnoma "Yusuf va Axmad", "Saddi Iskandariy", tarixiy-memuar "Shayboniynoma", "Jizzax qo'zg'oloni", falsafiy "Xayrat ul-abror", fantastik allegorik "Lison ut-tayr", didaktik "Qutadg'u bilig" turga bo'linadi.

Qaxramonlik dostonlarida xalq, jamiyat taqdiri tasvirlansa, ishqiy romantik dostonlarda oshiq ma'shuqlarning sarguzashti bosh o'rinda turadi. Tarixiy memuar

yoʻxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, boʻrttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolagʻali tasvir ustun boʻladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, xikoyatlar, dev, pari, xizr, ajdar, ajabtovur otlar, sehrjodu koʻp ishtirok etadi. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, dumbira va boshqa xalq cholgʻu asboblari joʻrligida ijro etiladi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil koʻrinishda boʻlsada, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni oʻziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va oʻz fikr-gʻoyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" asarlari asosida folklor mavzui turgan boʻlsada, shoir ularni oʻz estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib, tubdan qayta yaratgan. Dostonlar mazmunan qaxramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yoʻnalishlarida boʻlgan. Dostonlarni ijro etishda baxshi shoirlar muhim oʻrin tutgan. Mamlaktimizda doston kuylash anʻanasi qadimda uch yoʻnalishda rivojlangan. Birinchi yoʻnalishi - Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shaxrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi oʻzbek laqay. Dostonchilik maktablarida doʻmbira chertib, yakka holda, boʻgʻiz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchi yoʻnalish - Xorazmda tor, dutor, gʻijjak, bulamon, qoʻshnay, doira joʻrligida baʻzan yakka, baʻzan juft holda, ochiq ovoz bilan kuylangan. Uchinchi yoʻnalish - Fargʻona vodiysiga xos boʻlib, unda dutor joʻrligida ochiq ovozda aytilgan. Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari boʻlgan. Xalq orasida Yoʻldosh bulbul, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, Poʻlkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira qudratiga ega boʻlgan Poʻlkan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki uch ming satrdan tortib, oʻn-oʻn besh, xatto yigirma ming misragacha sheʻrni oʻz ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega boʻlganligidan dalolat berar edi. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli oltmishta, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ellikta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning baʻzilari faqat doston aytsa, baʻzilari oʻzlari ham dostonlar toʻqiganlar. Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, toʻy hashamlar ham baxshilarsiz oʻtmagan, tinglovchilar baxshini toʻrga oʻtkazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan.

Baxshilardan Shernazar Berdinazar oʻgʻli yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar oʻz iqtidorlari, soʻzga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan oʻzaro bellashganlar. Mintaqada oʻziga xos anʻanalarga ega boʻlgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulungʻur,

Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shaxrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra birbiridan ajralib turgan. Bulung'ur dostonchilik maktabi "Alpomish" dostonini kuylash mahorati bilan ajralib turgan, bu yerga boshqa baxshilar kelib o'z mahoratlarini oshirganlar. Uning vakili Amin baxshi "Alpomish" dostonini uch oygacha kuylay olgan. Qashqadaryo vohasidagi Qamay qishlog'ida shakllangan Qamay dostonchilik markazi Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi oltmishga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Farg'ona vodiysida ham qadimdan baxshichilik rivojlangan. 1935-yilda vodiya baxshichilik maktabi namoyondalari, Bo'ri baxshi Sodiq o'g'li, Usmon baxshi Mamatqul o'g'li, Umrzoq baxshi, Xasan baxshi Xudoyberdi o'g'li, Xasanboy baxshi Rasul o'g'li kabilarning ijodiy faoliyati o'rganilgan. Ular o'zbek xalq dostonlaridan bir nechtasini kelajak avlodga meros qilib qoldirgan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shoxsanam", "Xolbeka" nomli ko'plab dostonlar shular jumlasidandir. Hozirda vodiya bugungi kunga kelib, doston kuylovchi baxshilarni uchratish mushkul. Lekin bugungi kunda doston kuylovchi yoshlar yetishib chiqayotganligi bizni quvontiradi. Vodiya yagona ayol baxshi nomi bilan tanilib kelayotgan yosh ijodkor Guliruxsor Jo'rayeva O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali "Folklor va etnografiya" yo'nalishi magistratura bosqichida tahsil olish bilan birga ilmiy-ijodiy izlanib, bilimni oshirib kelmoqda. Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og'zaki ijodi folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qariyatlari va an'-analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manbaa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Dostonlar xalqimizning uzoq o'tmishidan habar beruvchi noyob manbalar hamdir. Yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda va ularni keng o'rganishda, targ'ib qilishda imkon beradi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida xalq dostonlarini izlab topish va tadqiq etishga e'tibor kuchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayev O. Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «Sharq» NMAKBT,
2. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.:2008, 24-40-betlar.
3. O'zbek folklori ocherklari. 1-jild. – T.: «Fan», 1988. 25-35-betlar
4. Boychechak. Qo'shiqlar. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
5. Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati.- Toshkent.: Fan, 2008, -104
6. G'.Yu .Yunusov . Folklor jamoa ijrochiligi – Toshkent 2021 .